



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 391 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
<b>Ж.Я.Нуриллаев</b>	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar .....	44
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti .....	60
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) .....	72
<b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
<b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
<b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida .....	117
<b>Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich</b>	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati .....	122
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей .....	128
<b>Алимова Райхона Баходировна</b>	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
<b>Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari .....	143
<b>Nematulloev Suxrob Sobirovich</b>	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi .....	148
<b>Kamola Xaydarova</b>	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili .....	153
<b>Mahmudov Nosir Mahmudovich</b>	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli .....	159
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises .....	165
<b>Khalilov Bekzod Akhmatovich</b>	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
<b>Mirtursunova Dinara Anvarovna</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
<b>Tangriyev Izzat Raxmatullayevich</b>	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
<b>Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin</b>	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish .....	186
<b>Nodirov Azizxon Asrorovich</b>	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari .....	192
<b>Bexzod Qo'ziboev</b>	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста .....	197
<b>С.С. Убаева</b>	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati .....	201
<b>Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich</b>	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
<b>Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna</b>	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili .....	210
<b>Baqoyev Husan Nuriddinovich</b>	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish .....	216
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
<b>Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari .....	225
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna</b>	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
<b>Raxmonova Feruza Musaqulovna</b>	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
<b>Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
<b>Karshiyev Adham Anvarovich</b>	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
<b>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
<b>Talapova Nargiza Baxriddinova</b>	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari” .....	255
<b>Saidbekova Feruza Anvarbek qizi</b>	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari .....	258
<b>Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich</b>	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет .....	262
<b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b>	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri .....	270
<b>Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich</b>	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari .....	273
<b>Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich</b>	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi .....	277
<b>Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li</b>	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari .....	281
<b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi .....	286
<b>Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich</b>	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) .....	291
<b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo‘llanilishi .....	298
<b>Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li</b>	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi .....	303
<b>Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li</b>	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari .....	316
<b>Saypiddinov Shukurullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li</b>	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari .....	320
<b>Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich</b>	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari .....	326
<b>Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</b>	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi .....	330
<b>Madieva Zuxra Iskandarbekovna</b>	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil .....	336
<b>Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich</b>	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli .....	340
<b>Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova</b>	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari .....	346
<b>Xoliyorov Xomid Boynazarovich</b>	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия .....	352
<b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili .....	362
<b>Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi</b>	
O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari .....	368
<b>Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li</b>	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish .....	374
<b>Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi</b>	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish .....	380
<b>G‘aniev Elyor Sobirjonovich</b>	
O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati .....	386
<b>Mirzayev Muzaffar Maxmudovich</b>	



## O'ZBEKISTONDA SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI

### Mirzayev Muzaffar Maxmudovich

PhD, "Xalqaro munosabatlar, iqtisodiyot va biznes" kafedrasida dotsenti,  
Diplomat University

E-mail: [muza.mirzayev@gmail.com](mailto:muza.mirzayev@gmail.com)

ORCID <https://orcid.org/0009-0005-0069-3569>

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Sirkulyar iqtisodiyot – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar miqdorini kamaytirish hamda mahsulot va materiallarning hayotiy siklini uzaytirish orqali barqaror rivojlanishga erishishni nazarda tutuvchi zamonaviy yondashuvdir. Ushbu model O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda mazkur yo'nalishda olib borilayotgan davlat siyosati, qonunchilik asoslari va amalga oshirilayotgan amaliy ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqbolli takliflar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sirkulyar iqtisodiyot, plastik chiqindilar, yashil sertifikatlash, mahalliy saralash tizimi, ekologik toza tovarlar.

**Abstract:** The importance of the transition to a circular economy in the Republic of Uzbekistan, its economic, environmental and social aspects are highlighted. Circular economy is a modern approach that involves achieving sustainable development through the rational use of natural resources, reducing waste, and extending the life cycle of products and materials. This model plays an important role in ensuring environmental safety in Uzbekistan, increasing the competitiveness of industrial sectors, introducing innovative technologies, and accelerating the transition to a green economy. The study analyzes state policy, legislative frameworks, and practical work being carried out in this area, and outlines existing problems and promising proposals.

**Key words:** Circular economy, plastic waste, green certification, local sorting system, environmentally friendly goods.

**Аннотация:** Освещена важность перехода к экономике замкнутого цикла в Республике Узбекистан, ее экономические, экологические и социальные аспекты. Круговая экономика – это современный подход, направленный на достижение устойчивого развития за счет рационального использования природных ресурсов, сокращения отходов и продления жизненного цикла продукции и материалов. Данная модель имеет большое значение в обеспечении экологической безопасности Узбекистана, повышении конкурентоспособности отраслей промышленности, внедрении инновационных технологий и ускорении перехода к зеленой экономике. В исследовании анализируются государственная политика, законодательная база и практическая работа, проводимая в этой сфере, а также обозначены существующие проблемы и перспективные предложения.

**Ключевые слова:** экономика замкнутого цикла, пластиковые отходы, зеленая сертификация, локальная система сортировки, экологически чистые товары.



## KIRISH

XXI asrda global miqyosda iqtisodiy o'sish va sanoat rivojlanishining jadallashuvi bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchayib bormoqda. An'anaviy "chiziqli" iqtisodiyot modeli – ya'ni resurslarni qazib olish, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va chiqindiga aylantirish – ekologik izni kengaytirib, tabiiy resurslarning tugab borishiga, chiqindilar hajmining oshishiga hamda global iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Shu bois, jahon hamjamiyati oldida iqtisodiyotni barqaror va ekologik jihatdan samarali shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu borada sirkulyar (aylanma) iqtisodiyot konsepsiyasi muqobil va istiqbolli yondashuv sifatida qaralmoqda.

Sirkulyar iqtisodiyot – bu resurslardan foydalanishda yopiq siklga asoslangan model bo'lib, mahsulot va materiallarni maksimal darajada uzoq muddat davomida iqtisodiy aylanishda saqlab qolish, ularni qayta ishlash, yangilash va takror foydalanishni nazarda tutadi. Bu yondashuv chiqindilar miqdorini kamaytirish, resurslarga bo'lgan talabni pasaytirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, sanoatni modernizatsiyalash va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Mazkur ishda O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning zarurati, afzalliklari, mavjud muammolar hamda bu yo'nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sirkulyar iqtisodiyot bugungi kunda global iqtisodiy va ekologik muammolarga barqaror yechim topishning muhim vositasi sifatida xalqaro miqyosda keng o'rganilayotgan sohaga aylandi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, OECD va Jahon Banki tomonidan tayyorlangan hisobotlar hamda strategik hujjatlarda ushbu modelning afzalliklari, joriy etish bosqichlari va sektorlar kesimidagi ta'sir mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Ellen MacArthur Foundation (2013, 2015) tomonidan taqdim etilgan konseptual asoslar sirkulyar iqtisodiyotda resurslar aylanishini ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xorijiy adabiyotlarda, masalan, Kirchherr (2017), Geissdoerfer va boshqalar (2017) tadqiqotlarida sirkulyar iqtisodiyotning klassik modeli, uni amaliyotga tatbiq etishdagi tizimli yondashuvlar, davlat siyosatining roli va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari chuqur o'rganilgan. Ular sirkulyar iqtisodiyotni ekologik barqarorlik, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish vositasi sifatida talqin qilgan.

O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Xudoyberganov T., Qodirov D., Qurbonov M. kabi iqtisodchilar o'z maqolalarida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik standartlarga moslashtirish zarurati haqida fikr bildirganlar. Ularning izlanishlarida O'zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyotning joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan omillar – institutsional, moliyaviy va texnologik cheklovlar – hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar, jumladan, "2021–2030 yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish dasturi" kabi me'yoriy hujjatlar sirkulyar iqtisodiyotga asos bo'luvchi siyosiy va huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning ahamiyatini tahlil qilishda tahlil va sintez metodi, komparativ tahlil metodi, statistik tahlil metodi, ekspert baholash usuli, normativ-huquqiy tahlil usuli, Case-study (holat tahlili) ilmiy metodlardan foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2025-yil 1-noyabrga qadar plastik chiqindilarni qisqartirish bo'yicha quyidagi xalqaro tan olingan mexanizmlarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini



ishlab chiqadi.<sup>1</sup> Hujjat plastik qadoqlar yoki plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda import qiluvchilarga nisbatan “taralarni qaytarish”, fuqarolarga chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus uskunalarga topshirilgan har bir plastik idish uchun to'lov qilish imkoniyatini yaratish kabi majburiyatlar joriy qilishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda yiliga 10,2 mln tonna chiqindi hosil bo'lib, uning 10,3 foizi plastmassadan iborat. 2022-yilda plastik hajmi 2013-yilga nisbatan 2,5 baravarga oshdi. Ekologiya vazirligi o'tkazgan inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra, plastmassaning eng yirik iste'molchilari qadoqlash, transport va qurilishdir.

Respublikaning deyarli har bir hududida plastmassa buyumlari, jumladan, idish-tovoq va qop ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Bundan tashqari, mamlakatga plastik mahsulotlar importi eksportdan sezilarli darajada oshib, 2023-yilda 158,5 ming tonnani, 487,5 mln dollarni tashkil etdi.

Hisobotda plastik chiqindilarni samarali boshqarish uchun infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlangan. Ayniqsa, poliyetilen, polipropilen va PET uchun qayta ishlash korxonalari sonining ko'payishi chiqindi poligonlariga tashlanadigan chiqindilar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi va qayta ishlashning iqtisodiy rentabelligini oshiradi.

2019-yilgacha bo'lgan davrda plastikni bosqichma-bosqich yo'q qilishga qaratilgan davlat dasturlari soni uch baravar oshgan. O'zbekistonda yiliga 10,2 mln tonna chiqindi hosil bo'lib, uning 10,3 foizi plastmassadan iborat. 2022-yilda plastik hajmi 2013-yilga nisbatan 2,5 baravarga oshdi. Ekologiya vazirligi o'tkazgan inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra, plastmassaning eng yirik iste'molchilari qadoqlash, transport va qurilishdir.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida ishlatiladigan plastik hajmi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Qadoqlash sektori plastikning eng yirik iste'molchisi bo'lib qolmoqda. 2022-yilda uning ulushi bozorga kiradigan plastik umumiy hajmining 22,1 foizini tashkil etgan. Transport sektori 24,9 foiz ulushi bilan ikkinchi, qurilish sektori 22,2 foiz bilan uchinchi o'rinni egallagan. Ushbu uchta sanoat mamlakatdagi barcha plastikning 69 foizdan ortig'idan foydalanadi. Ushbu taqsimotning asosiy sabablaridan biri plastik uchun qo'llanilishining keng doirasi: bir martalik qadoqlash va transport komponentlaridan tortib, bardoshli qurilish materiallarigacha.

Plastmassadan foydalanish ortib borishi bilan chiqindilar hajmi ham oshadi. 2022-yilda plastik chiqindilar miqdori 249 241 tonnaga yetgan, bu 2013-yilga nisbatan 147 foizga ko'pdir. Chiqindilarning asosiy manbai qadoqlash bo'lib qoladi, bu umumiy hajmning 192 115 tonnasini tashkil etadi. Bu qadoqlash materiallarining qisqa xizmat muddati bilan bog'liq bo'lib, ular ko'pincha ishlatilgandan keyin darhol tashlanadi. Shu bilan birga, transport va qurilish sohalarida chiqindilar sekinroq ko'paymoqda, chunki bu tarmoqlarda plastik mahsulotlar uzoq xizmat qilish muddatiga ega.

Ayni paytda O'zbekistonda yiliga 10,2 mln tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lib, uning 10,3 foizini (1,05 mln tonna) plastik chiqindilar tashkil etadi.

O'zbekistonning deyarli har bir hududida plastmassa buyumlari, jumladan, idish-tovoq va qop ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Aholi orasida plastik mahsulotlar, jumladan, poliyetilen paketlardan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatga plastik mahsulotlar importi eksportdan sezilarli darajada oshib, 2023-yilda 158,5 ming tonnani, 487,5 mln dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2023-yilda plastik import ulushi 2020-yilga nisbatan 54,6 foizga oshdi. Inventarizatsiya jarayonida plastik chiqindilarni samarali boshqarishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, mamlakatda qayta ishlash infratuzilmasi yanada rivojlantirish va takomillashtirishni taqozo etadi. Qayta ishlash korxonalarining cheklangan soni chiqindilarni, ayniqsa, poliyetilen, polipropilen va poliyetilen tereftalat (PET) kabi asosiy polimerlarni samarali qayta ishlash imkoniyatini kamaytiradi.

Ikkinchidan, chiqindilarni alohida yig'ish tizimining yo'qligi qayta ishlash korxonalarining mavjud quvvatlaridan samarali foydalanishni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Plastik chiqindilarni samarali boshqarish uchun infratuzilmani rivojlantirish zarur. Qayta ishlash korxonalari, xususan, poliyetilen, polipropilen va PETni ko'paytirish poligonlarga jo'natiladigan chiqindilar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi va qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston 2030-yilgacha iqtisodiyotning ikki baravar o'sishini va YaIM hajmini 200 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. Bu esa YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati taxminan 6% bo'lishini anglatadi. Sirkulyar iqtisodiyotga o'tish, ya'ni resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali iqtisodiyotning barqarorligini oshirish, bu o'sishga hissa qo'shadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 27-yanvardagi yig'ilishida, sanoat va infratuzilma loyihalarining 15% ekologik jihatdan barqaror bo'lishi belgilangan bo'lib, 2027-yilda bu ko'rsatkich 30%, 2030-yilda esa 55% ga yetkazilishi rejalashtirilgan.<sup>2</sup>

Bundan tashqari, 2030-yilgacha O'zbekistonda yashil energiya ulushini 54% ga yetkazish maqsadi qo'yilgan. Bu orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish orqali

1 “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Атроф-мухитни асраш ва “яшил иктисодиёт” йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида

2 <https://president.uz/ru/lists/view/7839>



sirkulyar iqtisodiyotga o'tish amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi doirasida, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning muhimligi ta'kidlangan. Bu jarayon iqtisodiyotning turli sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.<sup>3</sup>


Sirkulyar iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan iqtisodiy maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib, YalMning barqaror o'sishini ta'minlashga hissa qo'shadi. Agar sirkulyar iqtisodiyot global YalMga 4-5% hissa qo'shsa, O'zbekiston uchun bu 2-4% oralig'ida bo'lishi mumkin. 2023-yil O'zbekiston YalMi 90 mlrd dollar, 2030 – yilga kelib kelib 150-200 milliard dollar bo'lishi kutilmoqda. O'zbekiston sirkulyar iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishi natijasida YalMga potentsial hissasi 3-8 milliard dollar (2-4%) ni tashkil qilishi mumkin. O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotning quyidagi asosiy sohalar bo'yicha foydani amalga oshiradi.

Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish: O'zbekistonda yillik chiqindining 10% dan kamrog'i qayta ishlanadi. Agar bu ko'rsatkich 30-40% ga oshsa, 1-2 mlrd dollar qo'shimcha qiymat yaratilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida organik va qayta ishlangan resurslar: Suv va o'g'itlardan samaraliroq foydalanish YalMning 1-2% ga teng iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

To'qimachilik va qurilish sanoatida qayta ishlangan materiallar: Global talab o'sishi bilan birga eksport potentsiali oshishi mumkin. Natijada 0.5-1.5 milliard dollar daromad keltiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Jahon bankining xisob kitoblarida O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sirkulyar iqtisodiyot 3% gacha YalM o'sishini ta'minlashi mumkin. 2022-yilda O'zbekistonda jami 10,2 million tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo'lib, uning 10,3 foizi (1,05 million tonna) plastik chiqindilarni tashkil etgan.<sup>4</sup> Plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasi 32% ni tashkil etadi, bu 5–10 yil avvalgidan sezilarli darajada yuqori.<sup>5</sup> Ekologiya vazirligi tomonidan plastik chiqindilarni kamaytirish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Ushbu loyiha plastikni qabul qilish punktlarini tashkil etish, utilizatsiya qilish uskunalarini o'rnatish hamda "taralarni qaytarish" tizimini joriy etishni nazarda tutadi.<sup>6</sup> 2027-yildan boshlab plastik paketlarni ishlab chiqarish, import qilish va ulardan foydalanishni taqiqlash rejalashtirilgan. O'zbekistonda plastik chiqindilarni kamaytirish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqiladi.



1-rasm. O'zbekistonda plastik chiqindilar hajmi (ming tonna).

O'zbekistonda plastik chiqindilar hajmining yildan-yilga izchil ortib borayotgani yuqoridagi grafikda yaqqol ko'rinmoqda. 2013-yilda mamlakatda plastik chiqindilar hajmi 100 ming tonnani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich har yili o'sib borib, 2022-yilga kelib 249,2 ming tonnaga yetgan. Bu esa so'nggi 10 yil ichida plastik chiqindilar hajmi 2,5 barobarga ko'payganini anglatadi. Mazkur ko'rsatkichlar plastik mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi, aholining turmush tarzidagi o'zgarishlar, sanoat va savdo tarmoqlarining kengayishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, bir martalik plastik idishlar, qadoqlash materiallari va polietilen paketlardan keng foydalanilayotgani chiqindilar miqdorining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat ekologik muammolarni kuchaytiradi va atrof-muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash, ularni ajratib yig'ish tizimini kuchaytirish, plastik iste'molini bosqichma-bosqich kamaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish kabi choralar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat statistika qo'mitasi va ekologiya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda qayta ishlash korxonalarining

3 [https://unece.org/sites/default/files/2022-6/9789211172966\\_I4SDR\\_UZBEKISTAN\\_2022\\_web\\_full%2Bcover.pdf](https://unece.org/sites/default/files/2022-6/9789211172966_I4SDR_UZBEKISTAN_2022_web_full%2Bcover.pdf)


4 [https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/plastic-waste/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/plastic-waste/?utm_source)

5 [https://uz-eco.tilda.ws/uz/?utm\\_source](https://uz-eco.tilda.ws/uz/?utm_source)

6 [https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/plastic/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/plastic/?utm_source)



soni va quvvati oshirilmoqda. Biroq mavjud o'sish sur'atlari plastik chiqindilarning umumiy hajmiga nisbatan hanuz yetarli emas. Shu bois, ilmiy asoslangan chiqindilarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, xususan plastik chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan milliy dasturlarni kengaytirish zarur (1-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasi.

2013–2022-yillar davomida O'zbekistonda plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasining o'sish sur'atlari ijobiy yo'nalishda kechganini yuqoridagi grafikdan ko'rish mumkin. Agar 2013-yilda qayta ishlash darajasi atigi 10% bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 32% ga yetgan. Bu o'zgarish 10 yil ichida plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasi uch barobar oshganini anglatadi. Bu yutuqlar davlat tomonidan ekologiya va chiqindilarni boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, Prezidentning 2019-yil 27-dekabrda PF–6017-sonli farmonida belgilangan "Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya" doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasidir. Ushbu hujjatda qayta ishlanadigan chiqindilar ulushini bosqichma-bosqich oshirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va chiqindilarni saralab yig'ish tizimini joriy etish vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekistonda qator yirik sanoat korxonalarini va kichik biznes subyektlari qayta ishlash sohasiga jalb qilinmoqda. Ayniqsa, plastik butilkalar, polietilen paketlar va boshqa bir martalik plastik mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar soni oshib bormoqda. Qayta ishlangan plastik xomashyodan yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishi esa iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishda muhim omil bo'lmoqda. Shunga qaramay, 32% darajasi hali ham yetarli emas. Rivojlangan davlatlar bilan solishtirilganda, bu ko'rsatkich o'rtacha darajada hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida plastik chiqindilarning qayta ishlanish darajasi o'rtacha 40–45% atrofida bo'lib, ayrim mamlakatlarda esa 50% dan yuqoriga chiqmoqda. Bu esa O'zbekiston oldida hali katta imkoniyatlar va vazifalar borligini ko'rsatadi (2-rasm).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda insoniyat jadal rivojlanayotgan sanoatlashuv, resurslarning haddan ziyod iste'moli va atrof-muhitga bo'lgan beparvolik oqibatida sayyoramiz ekologik muvozanatini izdan chiqarayotganini inkor etib bo'lmaydi. Bunday vaziyatda chiqindilarni boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa sirkulyar (aylanma) iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish strategik dolzarb vazifaga aylangan. Endi esa biz jamiyat sifatida chiqindilarni muammo emas, balki iqtisodiy va ekologik imkoniyat sifatida ko'rishimiz zarur.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib sirkulyar iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotga (YaIM) 4–5% darajasida hissa qo'shishi mumkin. Bu esa 4–5 trillion AQSH dollari miqdorida iqtisodiy natijani anglatadi. Ushbu salmoqli o'sish salohiyati esa bevosita davlatlarning siyosiy irodasi, xususi sektor ishtiroki, innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritilishi va aholining ekologik ongiga bog'liqdir.

O'zbekiston uchun ham sirkulyar iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va ishlab chiqarish hajmining o'sishi fonida chiqindilar miqdori keskin ko'paymoqda. Ayni paytda mamlakatimizda plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasi atigi 6,1% ni tashkil etmoqda, bu esa global ko'rsatkichlardan ancha past. Biroq, agar davlat, ishlab chiqaruvchilar va fuqarolik jamiyati bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, bu raqamlarni sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud. Natijada O'zbekiston iqtisodiyotiga 2030-yilga borib 2–4% (taxminan \$3–8 milliard) qo'shimcha YaIM hissa qo'shilishi mumkin.



Chiqindilarni iqtisodiyotga qayta jalb qilish orqali nafaqat resurslar tejaladi, balki yangi iqtisodiy yo'nalishlar – qayta ishlash sanoati, yashil texnologiyalar, bioenergetika va ekoturizm kabi sohalar shakllanadi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha 100 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa ishsizlikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, qayta ishlash infratuzilmasining kengaytirilishi va modernizatsiyasi Toshkent va boshqa sanoat markazlarida havo ifloslanishini kamaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish orqali aholi salomatligi va hayot sifati oshadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ellen MacArthur Foundation. (2013). Towards the Circular Economy: Economic and Business Rationale for an Accelerated Transition. Ellen MacArthur Foundation.
2. Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2017). Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. Resources, Conservation and Recycling, 127, 221–232.
3. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N.M.P., & Hultink, E.J. (2017). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production, 143, 757–768.
4. OECD. (2020). The Circular Economy in Cities and Regions. Organisation for Economic Co-operation and Development.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). (2019). Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy Planet, Healthy People. Cambridge University Press.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-son qarori, 4.10.2019 y. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi 338-son qarori "2021–2030 yillarda Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida.
8. Xudoyberganov T.S. (2022). Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida chiqindilardan samarali foydalanish mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3.
9. Qurbonov M.T. (2021). O'zbekistonda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishda sirkulyar iqtisodiyotning o'rni. Fan va taraqqiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2.
10. Qodirov D.X. (2023). Aholi xo'jalik faoliyatida chiqindilarni qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligi. Barqaror rivojlanish: iqtisodiyot va boshqaruv jurnali, №1.
11. <https://president.uz/ru/lists/view/7839>
12. [https://unece.org/sites/default/files/2022-6/9789211172966\\_I4SDR\\_UZBEKISTAN\\_2022\\_web\\_full%2Bcover.pdf](https://unece.org/sites/default/files/2022-6/9789211172966_I4SDR_UZBEKISTAN_2022_web_full%2Bcover.pdf)
13. [https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/plastic-waste/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/plastic-waste/?utm_source)
14. [https://uz-eco.tilda.ws/uz/?utm\\_source](https://uz-eco.tilda.ws/uz/?utm_source)
15. [https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/plastic/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/plastic/?utm_source)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>